



Ассоциация
акушеров-гинекологов
Республики Узбекистан



Министерство
Здравоохранения
Республики Узбекистан



Центр Развития
Профессиональной Квалификации
Медицинских Работников РУз



Ташкентская
Медицинская
Академия

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СТАНДАРТИЗАЦИИ ОКАЗАНИЯ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ В АКУШЕРСКО-ГИНЕКОЛОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ

Материалы научно-практической конференции

Сборник Тезисов



*посвященной памяти
д.м.н, профессора А.С. Мордухович*

Ташкент 23.02.2023

< 1 / 422 >



| | |
|---|-----------|
| HOMILADOR AYOLLARDA BACHADON BO'YNI KASALLIKLARI DIAGNOSTIKASINI OPTIMALLASHTIRISH Choriyeva G.Z. ¹ , Isroilova R.S. ¹ | 19 |
| PECULIARITIES OF MET235THR POLYMORPHISM IN PATIENTS WITH GESTATIONAL HYPERTENSION Djamilova Kh.A, Kurbanov B.B | 21 |
| AUTOIMMUN TIREOIDIT KASALLIGI BO'LGAN AYOLLARDA ANTITELO-TIREOPEROKSIDAZA DARAJASI OSHISHINING GONODOTROP GORMONLAR O'ZGARISHIGA TA'SIRI Egamova M.B. ¹ , PhD, dotsent Raxmanova N.X. ² , Masharipov O.Q. ³ | 22 |
| HOMILADOR AYOLLARDA BILIAR SLADJNI TASHXISLASH VA DAVOLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUV. Egamova S.N. | 24 |
| HISTOLOGICAL ASPECTS OF EARLY NON- DEVELOPING PREGNANCY <i>Fazilova M.O.¹, Saddam A.Sh.²</i> | 26 |
| TO ESTABLISH A CORRECT PROGNOSIS OF PREECLAMPSIA IN THE EARLY STAGES OF PREGNANCY Hamdamov I.F. ¹ , Kamilova I.A. ² | 28 |
| CLINICAL AND MORPHOLOGICAL PARALLELS IN THE COURSE OF UTERINE MYOMA D.Y.Yuldasheva ¹ , D.Kh. Irnazarova ² , U.P.Mamadaliyeva ³ , G.A. Akhmedova ⁴ , N.I. Parvizi ⁵ . | 30 |
| REPRODUKTIV TIZIM VA QALQONSIMON BEZNING FUNKSIONAL O'ZARO TA'SIRI Zufarova Sh.A ¹ , Ismoilova K.G ¹ . | 33 |





HOMILADOR AYOLLARDA BACHADON BO'YNI KASALLIKLARI DIAGNOSTIKASINI OPTIMALLASHTIRISH

Choriyeva G.Z.¹, Isroilova R.S.¹

¹Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent shahri, O'zbekiston.

Dolzarbligi. Homilador ayollarda bachadon bo'yni patologiyalarining ko'p uchrashi bachadon bo'yni kasalliklari diagnostikasini optimallashtirishni talab etadi. Bu esa ushbu xastaliklarni tashxislashning maqbul va ishonchli usullarini tanlash zarurati bilan bog'liq.

Maqsad. Bachadon bo'yni kasalliklarini muqobil diagnostika qilish uchun tashxislash usullarini optimallashtirish.

Materiallar va usullar. Kuzatuv davomida 40 nafar bemor prospektiv tekshiruvdan o'tkazildi. Asosiy guruhni bachadon bo'yni patologiyasi aniqlangan va hozirgi homiladorlikdan oldin davom etib kelayotgan va homiladorlik aniqlanganda tashxis qo'yilgan 25 nafar bemor tashkil etadi. Nazorat guruhi sifatida bachadon bo'yni patologiyasi bo'lmagan 15 nafar ayol tekshirildi. Birinchi homiladorlik bo'lganlari birinchi guruhda 12 (48,0%) bemor va ikkinchi guruhda 3 (20,0%), qayta homiladorlar esa mos ravishda 13 (52,0%) va 12 (80,0%) ayollar edi. Barcha bemorlarda umumiy klinik tekshiruv usullar bilan bir qatordalar har oy oddiy va kengaytirilgan bachadon bo'yni kolposkopiyasi, bachadon bo'yni va qin ajralmalarini bakterioskopik va bakteriologik tekshirish, bachadon bo'ynini sitologik tekshirish, PSR usuli kabi tadqiqotlar o'tkazildi.

Natijalar. Qin va bachadon bo'yni ajralmalari tekshirilganda ikkala guruhda ham deyarli bir xilda nospesifik vaginit, genital kandidoz, bakterial vaginozga xos bo'lgan mikroflorasining patologik turlari qayd etildi. Asosiy guruh homilador ayollarning 15 ta (60%) va nazorat guruhining 12 tasida (80%) da bachadon bo'yni sitologik tekshiruvda CIN-1 ga, CIN-2 ga esa mos ravishda 10 tasi (40%) va (20%) ga to'g'ri keldi. Asosiy guruhda 14 ta (56%)

19





Coxp



bemorda ektopiya, 4 ta (16%) eroziya va 8 ta (32%) bemorda poliplar aniqlangan. Asosiy guruh ayollarida homiladorlikdan oldin bachadon bo'yni patologiyasini aniqlash chastotasi: ektopiya – 16 ta (64%), eroziya - 3 (12%), poliplar - 7 (28%) da aniqlangan. Asosiy guruhning homilador ayollarida o'tkazilgan morfologik tadqiqotda barcha holatlarda bachadon bo'yni to'qimalarida yallig'lanish jarayonining belgilari tasdiqlangan. Servitsitning kolposkopik rasmi asosiy guruhdagi 7 ta (28%) homilador ayollarda va nazorat guruhidagi 3ta (20%) homilador ayollarda topilgan. Bachadon bo'yni patologiyasi bo'lgan bemorlarda tug'ish asoratlarining yuqori darajasi qayd etilgan: muddatidan oldin tug'ruq 5 ta (20%), amniotik suyuqlikning muddatdan oldin ketishi 8 ta (32%), tug'ruq faoliyatidagi anomaliyalar 4 ta (16%), I-II daraja bachadon bo'yni yirtilishi chastotasi 4 ta (16%).

Xulosa.

1. Homilador ayollarda bachadon bo'ynining eng tipik kasalliklari ektopiya, eroziya va poliplardir.
2. Homilador ayollarda bachadon bo'yni patologiyasining mavjudligi ko'pchilik hollarda reproduktiv tizimning pastki qismlarining yallig'lanish kasalliklari (bakterial va virusli infeksiya) bilan kechadi.
3. Homilador ayolni kuzatish jarayonida kolposkopiya, sitologik tekshiruv, PSR diagnostikasi va ultratovush tekshiruvidan foydalanishni o'z ichiga olgan holda, bachadon bo'yni holatini har tomonlama dinamik monitoring qilish kerak.

